



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi
Jo‘raev Muhiddin Utkurovich, Y.f.b.f.d.
(PhD)*

O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlashning konseptual asoslarini rivojlantirish muammolari va istiqbollari

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi konseptual va ilmiy asoslarni takomillashtirishga qaratilgan islohotlar tahlil qilinadi. Prezident tashabbuslari, ekspert xulosalari hamda xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan “Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi muhokama etiladi. Shuningdek, mazkur sohada qonunchilikni tizimlashtirish va kodekslashtirish orqali samarali huquqiy mexanizmlarni shakllantirish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, huquqiy asos, qonun loyihasi, ekspert fikri, kodekslashtirish, ichki ishlar organlari, islohot.

ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ КОНСЕПТУАЛЬНЫХ ОСНОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В данной статье анализируются реформы, направленные на совершенствование концептуальных и научных основ в области обеспечения общественной безопасности в Республике Узбекистан. Будет обсужден проект Закона "Об общественной безопасности," разработанный на основе инициатив Президента, заключений экспертов и международного опыта.



Также обосновывается необходимость формирования эффективных правовых механизмов путем систематизации и кодификации законодательства в данной сфере.

Ключевые слова: общественная безопасность, правовая основа, законопроект, мнение эксперта, кодификация, органы внутренних дел, реформа.

PROBLEMS AND PROSPECTS FOR DEVELOPING THE CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF ENSURING PUBLIC SAFETY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. This article analyzes reforms aimed at improving the conceptual and scientific foundations in the field of ensuring public safety in the Republic of Uzbekistan. The draft Law "On Public Security," developed on the basis of the President's initiatives, expert opinions, and international experience, will be discussed. The need to form effective legal mechanisms through the systematization and codification of legislation in this area is also substantiated.

Keywords: public safety, legal basis, draft law, expert opinion, codification, internal affairs bodies, reform.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 10-yanvar kuni Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 7-son ichki ishlar bo'limiga tashrifi chog'ida ta'kidlaganidek: "Tinchlik va sog'likni ta'minlasak, qolgan hamma narsaga erishamiz" [1]. Ushbu fikr jamoat xavfsizligini ta'minlashning ustuvor ahamiyatini yana bir bor namoyon etadi. Tinchlik va osoyishtalik har qanday ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning poydevori hisoblanadi. Shu bois, mazkur sohadagi huquqiy munosabatlarning mustahkam qonun asosida tartibga solinishi dolzarb hisoblanadi.



O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlashga oid konseptual asoslarni takomillashtirish maqsadida bir qator ekspertlar J.I. Safarov, T.H. Altmishev, T.T. Qodirov kabi mutaxassislar "Jamoat xavfsizligi to'g'risida"gi alohida Qonun loyihasini qabul qilishni taklif etganlar [2] Ularning fikricha, mavjud holatda sohani asosan qonunosti hujjatlar asosida tartibga solish amaliyoti samarasiz boshlayotganligini ta'kidlaydilar.

Mazkur taklifni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligi xizmati xodimlari o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovi ham tasdiqladi respondentlarning 97 foizi mazkur tashabbusni qo'llab-quvvatlagani qayd etilgan [3].

F.Q. Xo'jamberdiyev o'z tadqiqotida jamoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni to'g'ridan-to'g'ri qonun bilan tartibga solish, sohadagi normalarni tizimlashtirish orqali ularni kodekslashtirishni ma'qul deb, ko'rsatadi. [4]

R.M. Jurayev esa jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etishni ustuvor vazifa sifatida ta'kidlaydi. [5]

Ushbu takliflarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibiyatining topshirig'iga binoan, Ichki ishlar vazirligi tomonidan "Jamoat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun loyihasi ishlab chiqildi. [6]. Mazkur hujjatni tayyorlash jarayonida xalqaro tajriba ham o'rganildi — Buyuk Britaniya, Avstraliya, Singapur, Yaponiya, Gonkong, Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Ukraina kabi davlatlarning huquqiy amaliyoti tahlil qilindi.

2024 yil 17 may kuni mazkur qonun loyihasi (ID-98499) jamoatchilik muhokamasi uchun normativ-huquqiy hujjatlar portalida e'lon qilindi.[6]

O'zbekiston Respublikasining "Jamoat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni loyihasiga ilova qilingan tushuntirish xatda ta'kidlanishicha, ushbu qonunni qabul qilish zarurati quyidagi sabablar bilan asoslanadi:



Birinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida yagona tizimning mavjud emasligi va davlat organlari o'rtasida hamkorlikning yetarlicha yo'lga qo'yilmagani, sohada faoliyat yurituvchi subektlar hamda ularning vakolatlarini aniq belgilash talabini vujudga keltirgan.

Ikkinchidan, "jamoat xavfsizligi" va unga oid asosiy tushunchalarga aniq ta'riflar berilmaganligi sababli ularni amaliyotda turlicha talqin qilish holatlari kuzatilmoqda. Shu bois, ushbu tushunchalarni huquqiy jihatdan aniqlash va ularni amalga oshirish mexanizmlarini mustahkamlash zarurligi paydo bo'lgan.

Uchinchidan, aholi gavjum joylarning turi va huquqiy maqomi turlicha bo'lgani, shuningdek, bunday hududlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashga bir nechta davlat organlari jalb etilishi tufayli, ular faoliyatini muvofiqlashtirish va rahbarlik tizimini belgilash zarurati paydo bo'lgan.

To'rtinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda jismoniy va yuridik shaxslar faol ishtirok etayotganiga qaramasdan, ularning huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari aniq belgilanmagan. Shu bois, ushbu munosabatlarni qonun darajasida mustahkamlash zarur.

Qonun loyihasi jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishni ko'zda tutadi. U 6 bob va 43 moddadan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ⊕ jamoat xavfsizligi siyosati va prinsiplari;
- ⊕ asosiy atamalarga (jumladan, tahdidlar, tajovuzlar, subektlar) aniq ta'riflar;
- ⊕ jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subektlar, ularning vakolatlari va hamkorlik mexanizmlari;
- ⊕ fuqarolar, nodavlat tashkilotlar va OAV ishtirokini belgilovchi normalar;



⊕ jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va majburiyatlari hamda fuqarolarni jalb qilishga oid cheklovlar;

⊕ aholi gavjum obektlarni muhofaza qilish tartibi va Prezident tomonidan tasdiqlanadigan talablar;

⊕ jalb etiladigan kuch va vositalarga rahbarlik, muvofiqlashtirish va nazorat masalalari;

⊕ ishtirokchi fuqarolar va NNTlarni ijtimoiy himoya qilish tartibi.

O‘zbekiston Respublikasining «Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonuni loyihasida quyidagi asosiy masalalar belgilangan:

1. Asosiy tushunchalar: “Jamoat xavfsizligi” – milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida shaxs, jamiyat va davlatni ichki va tashqi tahdid hamda tajovuzlardan himoyalangan holat sifatida ta’riflangan. Shunga o‘xshash ravishda “jamoat xavfsizligiga tahdidlar”, “jamiyatning hayotiy muhim manfaatlar” kabi asosiy tushunchalar ham qonun loyihasida huquqiy jihatdan aniqlangan.

2. Davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari:

– Jamoat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish bo‘yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

– Qonunbuzarliklar va tajovuzlarning oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish;

– Terrorizm, ekstremizm, korrupsiya, odam savdosi, noqonuniy migratsiya kabi xavflarga qarshi kurashish;

– Ijtimoiy nizolar va huquqbuzarliklarning profilaktikasi;

– Ommaviy tadbirlar va aholi gavjum joylarda xavfsizlikni ta’minlash;

– Transport va turizm infratuzilmasining xavfsiz faoliyat yuritishini ta’minlash;

– Yoshlar va voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklardan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;

– Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini xavfsizlik sohasiga joriy etish;



– Vakolatli organlarning tayyorgarligi, moddiy-texnik ta'minoti va ijtimoiy himoyasini mustahkamlash;

– Jamoat xavfsizligini ta'minlashda fuqarolar, jamoat birlashmalari va NNTlarning faol ishtirokini qonun bilan mustahkamlash.

3. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning asosiy prinsiplari:

- ✓ qonuniylik;
- ✓ fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va hurmat qilish;
- ✓ ochiqlik va shaffoflik;
- ✓ tahdidlarni oldini olish va bartaraf etishga ustuvorlik berish;
- ✓ barcha vakolatli tuzilmalar harakatlarining izchilligi va birdamligi.

4. Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi rahbarlik, mas'uliyat va ishtirokchi subektlardan iborat:

Rahbarlikni amalga oshiruvchilar: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, Prezident huzuridagi Xavfsizlik Kengashi;

Bevosita mas'ul subektlar: Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Adliya vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari;

Ishtirokchi subektlar: fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, jismoniy va yuridik shaxslar.

Qolaversa, boshqa davlat organlari va tashkilotlari ham qonunchilikda belgilangan tartibda jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etadi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari:

- davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- jamoat xavfsizligi subektlariga umumiy rahbarlikni amalga oshirish;



- xavfsizlik kengashi tomonidan ishlab chiqiladigan konsepsiya va strategiyani tasdiqlash;

- jamoat xavfsizligi sohasida vakolatlarni belgilash;

- farmon va qarorlar qabul qilish;

- real tahdid yuzaga kelganda favqulodda holat e'lon qilish.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining vakolatlari:

Prezidentning favqulodda holat e'lon qilish farmonlarini tasdiqlash;

Jamoat xavfsizligi sohasidagi qonunlar hamda ularga o'zgartirishlar qabul qilish;

Xalqaro huquqiy aktlarni ratifikatsiya qilish va bekor qilish.

7. Xavfsizlik Kengashining vakolatlari:

- ❖ yagona davlat siyosatini ta'minlash va faoliyatni muvofiqlashtirish;

- ❖ tahdidlarni bartaraf etish uchun kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va nazorat qilish;

- ❖ tahdid va tajovuzlarni aniqlash, tahlil qilish va choralarni belgilash;

- ❖ millatlararo nizolarni oldini olish choralari ko'rish;

- ❖ jamoatni qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilish, ularning oldini olish;

- ❖ Prezidentga takliflar tayyorlash, konsepsiya va strategiyani ishlab chiqib taqdim etish.

8. Vazirlar Mahkamasi va boshqa vakolatli organlar jamoat xavfsizligi sohasidagi vazifalari huquqiy islohotlar asosida bayon qilingan.

Shu o'rinda mazkur qaror loyihasida Davlat xavfsizlik xizmati, Adliya vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi vakolatlari, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalariga jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida huquqlari ko'rsatilgan.



O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura va Milliy gvardiya idoralariga axborot targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazishda beg‘araz yordam ko‘rsatish belgilangan.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan jamoat xavfsizligiga doir axborotning ishonchliligi uchun javobgarligi, ommaviy axborot vositalari tomonidan beriladigan axborot jamoat xavfsizligini va jamoat tartibini ta‘minlash maqsadida cheklanishi mumkinligi belgilangan.

Shuningdek, fuqarolarga jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida huquqlari belgilangan va fuqarolarni jamoat xavfsizligini ta‘minlashga jalb qilish bo‘yicha cheklovlar belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jamoat tartibini saqlashga jalb etilmaydigan shaxslar ham ko‘rsatilgan.

Jamoat xavfsizligini ta‘minlashda fuqarolarning ijtimoiy burchi muhim ahamiyatga ega. M.G. Salnikov fikriga ko‘ra, fuqarolarning g‘ayrihuquqiy, axloqiy majburiyatlarni shaxsan anglangan zarurat va ichki istak asosida, tashabbuskorlik bilan bajarishi muhimdir. Bu majburiyatlar turli harakatlarda namoyon bo‘lishi mumkin: huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jinoyat to‘g‘risida xabar berish, militsiyaga yordam berish va h.k. Fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirishda rag‘batlantirish muhim rol o‘ynaydi [7].

Xullas, O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta‘minlashga oid huquqiy munosabatlarni mustahkamlash, mazkur sohada konseptual va ilmiy asoslarni qayta ko‘rib chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada “Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasining qabul qilinishi nafaqat qonunosti hujjatlardan iborat tizimni isloh qiladi, balki sohadagi huquqiy, institusional va amaliy faoliyatning tizimli ravishda yuritilishini ham ta‘minlaydi. Shu jihatdan, jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida huquqiy islohotlarni chuqurlashtirish mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Mirziyoyev, SH.M. (2019). Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 7-son IIBga tashrif nutqidan.
2. Safarov, J.I., Altmishev, T.H., Qodirov, T.T. (2023). Jamoat xavfsizligini ta'minlashda qonunchilik asoslarini takomillashtirish. Yuridik fanlar jurnali, №4, 45–50-betlar.
3. Xo'jamberdiyev, F.Q. (2022). Jamoat xavfsizligi munosabatlarini huquqiy tartibga solishning zamonaviy tendensiyalari. Milliy qonunchilik tahlili, №2, 31–37-betlar.
4. Jurayev, R.M. (2021). Jamoat xavfsizligi va inson huquqlari: muvozanat masalalari. Huquq va amaliyot, №3, 25–29-betlar.
5. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. (2024). Jamoat xavfsizligi xizmati xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari. Toshkent.
6. regulation.gov.uz. (2024). "Jamoat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun loyihasi (ID-98499). <https://regulation.gov.uz/uz/document/98499/>
7. Салников М.Г. Административно-правовое положение граждан в сфере общественной безопасности: Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Омск, 2000. – С. 170.